



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 9 - yanvar

2-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Hududlarda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-son, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son qarorlariga asosan hududlardan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida,

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrda VI-81-231-8-0-K/23-son qarori bilan Surxondaryo viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori ma‘qullanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyati hududlarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarining miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Surxondaryo viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Safarova), “Toza hudud” DUK (E.Begimqulov), sanitar jihatdan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda:

bir oy muddatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib chiqish xizmati bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash ishlarini samarali tashkil etishni;

aholi punktlari hududidan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqish xizmati bo‘yicha marshrutlar jadvallarini qayta ko‘rib chiqib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanishini va ushbu

jadvallar asosida chiqindilar tashilishini amalga oshirishni ta'minlasinlar.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (J.Normo'minov) viloyat G'aznachilik boshqarmasi (A.Normurodov) bilan birgalikda:

budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning xarajatlar smetasida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashib chiqarish xarajatlari bo'yicha belgilangan normativlar asosida zarur mablag'lar rejalashtirilishini;

“Toza hudud” davlat unitar korxonasi, sanitar jihatdan tozalashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan budjet tashkilotlari o'rtasida tuziladigan tegishli shartnoma shartlariga ko'ra mablag'larning o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlasinlar.

5. Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalarini birlashgan tahririyati Davlat korxonasi (S.Norqobilov), viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (R.Safarova), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (K.Abduvoxidov), viloyat Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshqarmasi (A.Mustanov)ga tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda aholi keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

6. Viloyat hokimining “Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun majburiy to'lov tariflarini tasdiqlash to'g'risida” 2021-yil 12-noyabrdagi 183-8-0-Q/21-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Viloyat hokimligi boshqaruv apparati axborot xizmati (M.Davlatov) mazkur qaror viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta'minlasin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

9. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Viloyat hokimining birinchi  
o'rinbosari**



**A.X.Oripov**

Surxondaryo viloyat hokimining  
2024-yil 9-yanvardagi  
2-8-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Surxondaryo viloyatida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni  
to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari bo‘yicha ko‘rsatilgan  
xizmatlar uchun to‘lovlar  
TARIFLARI**

T/r	Tuman (shahar) nomi	To‘lov tariflari		
		Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish uchun		Suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish 1 (bir) m <sup>3</sup> uchun (so‘m)
		Aholiga 1 (bir) kishiga 1 (bir) oy uchun (so‘m)	Yuridik shaxslarga 1 (bir) m <sup>3</sup> uchun (QQSsiz) (so‘m)	
1	Angor tumani	4 500	70 000	70 000
2	Bandixon tumani	4 500	70 000	70 000
3	Boysun tumani	4 500	70 000	70 000
4	Denov tumani	4 500	70 000	70 000
5	Jarqo‘rg‘on tumani	4 500	70 000	70 000
6	Qiziriq tumani	4 500	70 000	70 000
7	Qumqo‘rg‘on tumani	4 500	70 000	70 000
8	Muzrabot tumani	4 500	70 000	70 000
9	Oltinsoy tumani	4 500	70 000	70 000
10	Sariosiyo tumani	4 500	70 000	70 000
11	Termiz shahar	4 500	70 000	70 000
12	Termiz tumani	4 500	70 000	70 000
13	Uzun tumani	4 500	70 000	70 000
14	Sherobod tumani	4 500	70 000	70 000
15	Sho‘rchi tumani	4 500	70 000	70 000